



THE IMPACT OF EUROPEAN MIGRANT FLOW ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF FERGANA REGION (1876-1917)

Mirjalol Nazirov

Senior Lecturer at Fergana State University

nazirovmirjalol60@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: resettlement policy, cotton industry, Russification, social integration, migrants, Fergana, demography, colonization, cultural differences.

Received: 10.07.25

Accepted: 11.07.25

Published: 12.07.25

Abstract: This article examines the socio-economic and cultural transformations in the Fergana region caused by the Russian Empire's colonial resettlement policy. It highlights the intensification of cotton production, forced Russification, administrative resettlement strategies, and their effects on indigenous agriculture. The study incorporates the perspectives of both foreign and post-Soviet scholars to assess the depth of colonial impact.

YEVROPALIK MIGRANTLAR OQIMINING FARG'ONA VILOYATI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI (1876-1917-YILLAR)

Mirjalol Nazirov

Senior Lecturer at Fergana State University

nazirovmirjalol60@gmail.com

Fergana, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ko'chirish siyosati, paxtachilik, ruslashtirish, ijtimoiy integratsiya, muhajirlar, Farg'ona, demografik siyosat, mustamlaka, madaniy tafovut.

Annotatsiya: Maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston, xususan Farg'ona viloyatiga olib borilgan ko'chirish siyosati natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tahlil qilinadi. Paxtachilikni kuchaytirish, ruslashtirish siyosatini o'tkazish, harbiy-ma'muriy tuzilma orqali hukmronlikni mustahkamlash maqsadida o'rnatilgan demografik siyosatning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida xorijiy va post-sovet olimlarining yondashuvlari asosida ko'chmanchilarining mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga ta'siri aniqlanadi.

ВЛИЯНИЕ ПОТОКА ЕВРОПЕЙСКИХ МИГРАНТОВ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ (1876–1917 ГОДЫ)

Мирджаалол Назиров

старший преподаватель Ферганского государственного университета

nazirovmirjalol60@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика переселения, хлопководство, русификация, социальная интеграция, мигранты, Фергана, демография, колониализм, культурные различия.

Аннотация: В статье рассматриваются изменения в социально-экономической и культурной жизни Ферганской области в результате колониальной политики переселения Российской империи. Анализируется усиление хлопководства, насильственная русификация, стратегическое заселение и воздействие на традиционное земледелие. Приведены мнения зарубежных и постсоветских исследователей о влиянии миграции на местные сообщества.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi o‘zining mustamlakachilik siyosatini faol ravishda O‘rta Osiyoga, xususan Turkiston o‘lkasiga yo‘naltirdi. Farg‘ona vodiysi bu siyosatning markaziy hududlaridan biri sifatida alohida e’tiborni tortdi. Bu hududning iqlimi, agrar imkoniyatlari va strategik joylashuvi imperyaning iqtisodiy va harbiy maqsadlariga to‘la mos kelardi [1].

Rossiya hukumati Turkiston o‘lkasida paxtachilikni rivojlantirishni asosiy strategik yo‘nalish sifatida belgiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki demografik va ijtimoiy siyosatni ham o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli migrantsion harakatlarni yuzaga keltirdi. Unga ko‘ra, imperyaning ichki guberniyalaridan minglab rus krestyanlari Turkistonga, ayniqsa, Farg‘onaga ko‘chirib keltirildi [2]. Bu migrantsion siyosat orqali chorizm ikki asosiy maqsadni ko‘zlagan: birinchisi, mahalliy yer-suv resurslarini ekspluatatsiya qilish, ikkinchisi esa mahalliy aholini ruslashtirish yo‘li bilan imperiyaga sodiq tutib turish edi [3].

Ko‘chmanchilarining kelishi bilan Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Avvalo, paxtachilik asosiy tarmoqqa aylantirildi, dehqonlar bu jarayonga siyosiy va ma’muriy bosim orqali jalb etildi [4]. Sug‘orma dehqonchilikka moslashmagan ko‘chmanchilar esa agrar tizimda katta islohotlarga sabab bo‘ldi [5].

Shu bilan birga, Rossiya hukumati bu yerda harbiy-ma’muriy “qal’a” siyosatini joriy etdi. Harbiy iste’fodagi askarlar va nasroniy ko‘chmanchilarga joy ajratilishi, tub aholi yerlarining

tortib olinishi Turkistonda keskin ijtimoiy tanglikka olib keldi [6]. Bu jarayon V.P. Voshinin tomonidan "bosqinchilik bilan birga kelgan demografik mustamlakachilik" deb baholangan [7].

Yevropalik muhojirlarning madaniy izolyatsiyasi, ular o‘z etnik qiyofasini saqlab qolishga intilgani — nemis, yahudiy, ukrain va boshqa jamoalarning alohida kvartallarda joylashuvi — Rossiya imperiyasining o‘ziga xos ijtimoiy ajratuv siyosatini aks ettirdi [8]. Svetlana Lur’ye bu holatni “asimilyatsiyadan ko‘ra ijtimoiy-gorizontal getto” deb baholaydi [9].

Shu tariqa, Farg‘ona viloyatiga yevropalik aholining migratsiyasi bevosita iqtisodiy, demografik va madaniy hayotni o‘zgartirdi. Mazkur maqolada ushbu o‘zgarishlarning tarkibiy tahlili olib boriladi

Rossiya imperiyasining Turkistonga nisbatan olib borgan ko‘chirish siyosati, ayniqsa Farg‘ona vodiysida, o‘zining murakkab va ko‘p qirrali oqibatlari bilan tarixiy manbalarda batafsil yoritilgan. A.A. Kaufman ko‘chirish va koloniya siyosatini zamonidagi eng yirik siyosiy-iqtisodiy mexanizm sifatida talqin qilib, bu jarayonni imperiya iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiluvchi rejalashtirilgan demografik harakat deb baholagan [1]. Shuningdek, u rus dehqonlarining mustamlaka yerlarida o‘zini qanday tutgani, ular qanday ijtimoiy rolda bo‘lganini tahlil qilgan.

V.P. Voshinin ko‘chirish siyosatini agrar va ijtimoiy inqirozlar oqibati deb ko‘rsatib, Rossiya ichki guberniyalaridan keltirilgan krestyanlarning ko‘pchiligi ocharchilik va qarzdorlikdan qutulish maqsadida imperianing chekka hududlariga yo‘l olganini qayd etadi [2]. Ularning aksariyati paxtachilik yoki sug‘orma dehqonchilik sharoitiga moslashmagan, bu esa tub aholi bilan ijtimoiy tanglikni kuchaytirgan.

Matveev o‘z tadqiqotida yevropalik ko‘chmanchilarining diniy, madaniy va milliy xususiyatlarini batafsil tahlil qiladi. Ularning Turkistonga kelgach, o‘z milliy o‘zligini saqlashga harakat qilgani, “yangi qismlar”da etnik jamlanmalarga birlashgani madaniy integratsiyadan ko‘ra izolyatsiyaga olib kelganini ko‘rsatadi [3].

Svetlana Lur’ye esa rus mustamlakachilik modelini boshqa Yevropa imperiyalaridan farqli tarzda baholaydi. Uning fikricha, Rossiya imperiyasi asimilyatsiya emas, balki ajratilgan jamiyatlar shakllanishini afzal ko‘rgan. Bu esa yevropalik muhojirlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni sustlashtirgan [4].

Yana bir muhim manba — 1881-yil 10-iyulda qabul qilingan “Dehqonlarni bo‘sh davlat yerlariga ko‘chirish bo‘yicha muvaqqat tartib-qoidalar” qonuni bo‘lib, bu hujjat imperiya hukumatining migratsiyani rasmiylashtirishdagi dastlabki urinishidir. Ushbu qonun ko‘chmanchilar harakatini tartibga solishga qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda u ko‘plab muammolarni bartaraf eta olmagan [5].

Metodologik jihatdan ushbu maqola tarixiy-taqqoslov tahlil (muayyan vaqt oralig‘ida joylashgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni solishtirish), tarixiy demografiya (aholi harakatlari, soni, tarkibi, manbalari asosida), va madaniy-germenevtik tahlil (madaniy va diniy tafovutlarning ijtimoiy tuzilmalarga ta’siri) usullariga asoslangan.

Shuningdek, maqola zamonaviy tarixiy-ijtimoiy yondashuvlardan, xususan, G. Hobsbaumning “invented traditions” (uydirilgan an’analar) konsepsiysi hamda E. Saidning “orientalism” (sharqshunoslikda hukmron g‘arblik qarash) nazariyalaridan ham bahramand bo‘lib, imperiya tomonidan yaratib berilgan tashqi nazorat va ichki izolyatsiyaning ijtimoiy rolini ko‘rsatib beradi.

Yevropalik aholining Farg‘ona viloyatiga ko‘chirilishi o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muvozanatni keskin o‘zgartirdi. Ko‘chirish siyosatining dastlabki bosqichi Rossiya imperiyasining paxtachilikni rivojlantirishga bo‘lgan strategik ehtiyojidan kelib chiqqan edi [1]. Bu orqali nafaqat metropoliyaga xomashyo bazasi yaratilgan, balki harbiy va iqtisodiy nazoratni kuchaytirish maqsad qilingan.

Turkistonda, ayniqsa Farg‘ona vodiysida sug‘orma dehqonchilik asosiy ishlab chiqarish tizimi bo‘lib, u mahalliy aholining ko‘p asrlik agrar tajribasiga tayangan edi. Ammo ko‘chirilgan rus krestyanlarining aksariyati bu sharoitga moslasha olmagan, ba’zilari esa moslashishni umuman istamagan. Natijada chorizm mahalliy dehqonlarni paxta yetishtirishga siyosiy va ma’muriy bosim orqali jalgan boshladi [2].

1881-yil 10-iyulda qabul qilingan “Dehqonlarni bo‘sh davlat yerlariga ko‘chirish bo‘yicha muvaqqat tartib-qoidalar” nafaqat ko‘chish tartibini belgilab berdi, balki tub aholining yer egalik huquqiga tahdid soluvchi omilga aylandi [3]. Mustamlaka ma’muriyati tomonidan yangi kelganlarga yer ajratish, ko‘pincha mahalliy aholi hisobiga amalga oshirilgan. Ko‘chmanchilar tomonidan tub aholi mol-mulkining musodara qilinishi ommaviy norozilik va g‘alayonlarga sabab bo‘lgan [4].

Ko‘chirilgan aholining joylashtirilishida “qal’a” tamoyiliga asoslangan harbiy-strategik yondashuv tanlangan bo‘lib, iste’fodagi askarlar uchun yerlar ajratilishi bu hududlarning ijtimoiy haritasi va demografiyasini o‘zgartirib yubordi [5]. Bu jarayonni tahlil qilgan Matveev, bu kabi harbiy mahallalar o‘z-o‘zidan imperianing doimiy kuchi va nazorat vositasiga aylanganini ta’kidlaydi [6].

Yevropalik muhajirlar, ayniqsa nemislar, yahudiylar, ukrainlar va belaruslar, “yangi shaharcha”larda etnik ajratilgan ko‘chalarda yashashni afzal bilgan. Bu ularning madaniy izolyatsiyasini kuchaytirgan, mahalliy aholi bilan ijtimoiy aloqalarning zaifligiga olib kelgan [7].

Svetlana Lur'ye bu holatni “Rossiya modelidagi mustamlakachilikda integratsiya emas, balki ijtimoiy ajralish ustuvor bo‘lgan” deb izohlaydi [8].

Qiziqarli jihat shundaki, Turkistonga joylashtirilgan yevropalik muhojirlar, ayniqsa nasroniy sekta vakillari (molokanlar, mennonitlar) o‘z axloqiy tamoyillari, soddaligi va kasbga sadoqatlari bilan mahalliy aholida ma’lum darajada ijobiy taassurot qoldirgan [9]. Biroq bu jarayon umumiy integratsiyaga olib kelmagan. Ko‘chmanchilar asosan o‘z tillari, urf-odatlari va diniy qadriyatlarini saqlagan holda yashagan, hatto maktablar va ibodatxonalarini alohida tashkil etishgan [10].

Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga eng jiddiy ta’sir — paxtachilikning majburiy bosim orqali joriy etilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Mahalliy dehqonlar paxta ekishga majbur qilinib, ular yetishtirgan mahsulotni bozor narxidan past narxda sotishga majbur bo‘ldilar [11]. Bu iqtisodiy siquv jarayonini E. Said “resurs ekspluatatsiyasi orqali nazorat mexanizmi” deb atagan edi [12].

Ukrainalik tarixchi V. Pirojkov ta’kidlaganidek, ko‘chirish siyosati nafaqat mustamlaka hududini ijtimoiy jihatdan o‘zgartirgan, balki imperiya o‘zining doimiy ideologik ustunligini ham mahalliy ijtimoiy ongga singdirishga harakat qilgan [13].

Ko‘chmanchilar birlashuvi jarayoni ham imperiya manfaatlariga xizmat qilgan. Turli slavyan guruhlari (ukrainlar, belaruslar) o‘z tillarini saqlagan bo‘lsada, Rossiya muhitida ular umumrus mafkurasiga sodiqlik bilan ajralib turgan [14]. Yahudiy muhojirlar esa mahalliy yahudiylar bilan emas, aynan Rossiyadan kelgan dindoshlari bilan aloqani afzal ko‘rgan [15].

Xulosa

Yevropalik aholining Turkiston, xususan Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilishi Rossiya imperiyasining uzoq muddatli geostrategik va iqtisodiy manfaatlariga asoslangan rejalshtirilgan siyosat bo‘lgan. Ushbu demografik o‘zgarishlar imperianing agrar islohotlar oqibatida yuzaga kelgan ichki bosimlarini yumshatish, yangi yerlardan samarali foydalanish, hamda mustamlaka hududlarini harbiy-strategik jihatdan mustahkamlashga xizmat qilgan. Ammo bu siyosat mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, madaniy muvozanatiga va demografik tarkibiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ko‘chirilgan yevropaliklar, asosan, izolyatsion madaniy muhitni afzal ko‘rgan. Bu esa ular bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy aloqalarning zaif bo‘lishiga olib kelgan. Farg‘ona vodiysida rus dehqonlari tomonidan o‘zlashtirilmagan sug‘orma dehqonchilik tizimi esa chorizmni tub aholiga bosim o‘tkazishga majbur qilgan. Ayniqsa, paxtachilikka o‘tish jarayoni iqtisodiy majburlash vositasiga aylangan.

Ayrim muhohir guruqlar (masalan, nemislar, molokanlar) o‘z diniy va madaniy qadriyatlarini asrab qolgan holda, muayyan ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan, ammo ular ham mahalliy ijtimoiy muhit bilan chuqur integratsiyalasha olmagan. Turkistonda shakllangan yangi ko‘chmanchilar bloklari, demografik jihatdan imperiya manfaatlarini ilgari surishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, madaniy va siyosiy jihatdan mahalliy jamiyat bilan uyg‘unlashmagan.

Bu tarixiy jarayon Rossiya imperiyasi tomonidan yuritilgan migrantsion siyosatning ikki tomonlama xarakterini — ya’ni iqtisodiy manfaatlar va ijtimoiy farqlilikni saqlab qolish orqali siyosiy nazoratni mustahkamlash strategiyasini aniq ko‘rsatib beradi. Bugungi kunda bu jarayonlarni qayta baholash mintaqaviy tarix va migrantsion siyosat bo‘yicha muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Кауфман А.А. Переселение и колонизация. Т.II. – Спб., 1905. – С.20.
2. Вошинин В.П. Переселение. // О земле, Вып.1. – М., 1921. – С.127.
3. ЎзРМА. И-1-жамғарма, 19-рўйхат, 10-иш, 20-21-вараклар.
4. Закон от 10 июля 1881 г. – Спб., 1881.
5. Матвеев А. М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому Октябрю. – Ташкент: Фан, 1977. – С.26.
6. ЎзМА. И-1-фонд, 16-рўйхат, 15-иш, 2-варак.
7. Светлана Лурье. Особенности русской колонизации в Средней Азии // <http://kungrad.com/history/st/ruskolon/>
8. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978.
9. Hobsbawm E. Nations and Nationalism since 1780. – Cambridge: CUP, 1990.
10. Pirozhkov V. Sotsialnaya transformatsiya naseleniya v epoxu reform. – Moskva: Nauka, 1995.
11. Турсунов Х. Туркистанда рус мустамлакачилигининг иқтисодий сиёсати. – Тошкент: Фан, 2019. – Б.77.
12. Назаров Н. Мухочирлик сиёсатининг ижтимоий оқибатлари. – Самарқанд: Жаҳон, 2021. – Б.43.
13. Рустамов Б. Фарғонада кўчманчи рус аҳолиси тарихи. – Тошкент: Янги аср, 2020. – Б.58.
14. M.Nazirov“Yevropadan ko‘chrib keltrilgan aholining Farg‘ona vodiysiga joylashtrilishi (Qo‘qon xonligi tugatilishi arafasida)” -F.: QDPI xabarlari 2025. – 778
15. M.Nazirov “Ko‘chiruvchilik siyosatining Farg‘ona viloyati tubxalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta’siri”..: FarDU ilmiy xabarlari 2025. – 304